



TEXNIKUM O'QUVCHILARINI O'QITISHDA IQTISODIY KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MAZMUNI

Xamidova Dilorom Muxitdinovna

Koson Agrotexnologiyalar texnikumi o'qituvchisi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8019476>

ARTICLE INFO

Received: 31st May 2023

Accepted: 08th June 2023

Online: 09th June 2023

KEY WORDS

Iqtisod, kompetensiya,
pedagogika, mazmun,
xususiyat, ijtimoiy-iqtisodiy,
bilim.

ABSTRACT

Ushbu maqolada texnikum o'quvchilarida ilk iqtisodiy bilimining to'g'ri shakllanishiga turtki bo'luvchi tushunchalar, tashqi ijtimoiy-iqtisodiy va pedagogik omillarning ta'siri katta. Bundan ko'rinib turibdiki, o'quvchida iqtisodiyotga oid tafakkurning rivojlanishi, unda ijobiy yoki aksincha salbiy tasavvurning shakllanishida atrofida kechayotgan narsa-hodisalar, xususan qabul qilinayotgan ma'lumotlarga to'g'ri munosabat bildirish, umuman voqelikni to'g'ri baholash ahamiyatga molikdir. Bunda o'quvchilarga bilim berishda iqtisodiy kompetensiyasini takomillashtirish mazmuni to'g'ri tahlil qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktabrdagi PF-6079-son «Raqamli O'zbekiston — 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmoni[1], O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishida muayyan darajada xizmat qiladi.

Hozirgi kunda texnikum o'quvchilarini bilim berishda iqtisodiy kompetensiyani takomillashtirishning pedagogik va ijtimoiy-iqtisodiy omillar mavjudligi, ular o'quvchi iqtisodiy tafakkuri rivojiga ijobiy yoki aks ta'sir ko'rsatishi mumkinligi aniqlanadi. O'quvchi bilim olish jarayonida pedagogik xususiyatlari kabi ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va moxiyatining ahamiyati bayon etildi.

Jamiyat va shaxsning iqtisodiy bilimi hamda madaniyati haqida fikr yuritish, tabiiyki jamiyat hayotining iqtisodiy sohasini falsafiy jixatdan tahlil etishni taqozo etadi. Binobarin, iqtisod jamiyat hayoti va uning taraqqiyotida muhim omil hisoblanadi. Bugungi kunda chuqur va mustahkam iqtisodiy tafakkur, bilim, ma'rifatga ega bo'lmasdan, ularni omilkorlik bilan amaliyotda qo'llamasdan turib, nafaqat jamiyat, davlat, balki oddiy insonning hayotiy faoliyatini ham tartibga solish va boshqarish [6].

Iqtisodiyot so'zi yunoncha oikonomos so'zidan kelib chiqqan bo'lib, uy xo'jalikni boshqaradigan kishi degan ma'noni anglatadi. Dastlab, bu manzara o'ziga xos tuyulishi mumkin.



Jamiyat hayoti, jarayon va hodisalarning iqtisodiy jihatini tushunish, T.V.Kondratenkoning fikricha, yosh avlodda murakkab bilimlarni egallash va ularning mazmuniga yaxlit qarashni shakllantirishni ta'minlaydi [3].

Texnikum o'quvchilarini o'qitishda iqtisodiy bilimi albatta iqtisodiy ta'lim jarayonida amalga oshiriladi. Iqtisodiy ta'lim esa integral tavsifga ega bo'lib, falsafiy, huquqiy, iqtisodiy, sotsiologik, psixologik va pedagogik jihatlar bilan bog'liqlikda rivojlanib boradi.

Iqtisodiy ta'lim - murakkab integral ta'lim jarayoni hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda ijtimoiy-iqtisodiy madaniyatning moxiyatini bilish, shu jumladan uni bashorat qilish, shakllantirish, saqlash va mustaxkamlash usullarini hisobga olgan holda, insonning ijtimoiy ahamiyatga ega hayotiy qadriyatlarini baholash tizimi[16].

Iqtisodiy bilimlarni o'zlashtirish natijasida shaxsning iqtisodiy madaniyati, uning ijtimoiy - iqtisodiy xulq - atvori shakllanadi hamda hayotiy faoliyat davomida inson hayotining sifati bilan tartibga solinadi. Shaxsni individual darajada shakllantirish, o'z- o'zini anglashi va rivojlantirishi bir qancha komponentlarni o'z ichiga oladi: maqsadli, mazmunan, kognitiv, texnologik yo'nalishlarda olib boriladi. Iqtisodiy madaniyat pedagogik jarayonda insonning umumiy madaniyatining asosiy komponentlaridan biridir.

K.S.Doroxina har bir o'quv profili uchun iqtisodiy kompetentsiyani shakllantirish samaradorligini ta'minlaydigan maxsus shartlarni (ta'lim texnologiyalarini tanlash, doimiy monitoring va boshqalar) ajratish kerak deb hisoblaydi [2].

Kompetentlik – olingan bilimlarga asoslangan holda harakat qila olishlik demakdir. Namunalarga o'xshash harakatlarni ko'zda tutadigan "bilim, ko'nikma va malakalardan" farqli o'laroq, kompetentlik universal bilimlarga asoslangan holda mustaqil faoliyat tajribasini nazarda tutadi. Kompetentlik – ijtimoiy amaliyot ko'rinishidagi bilim va ko'nikmalarning mavjudligi bo'lib, u ta'lim jarayoni natijalariga ijtimoiymadaniy talablar va jamiyat tomonidan talablar qo'yiladigan hollarda namoyon bo'ladi.

N. I. Kuznetsova iqtisodiy ta'limning dolzarbligini, o'tish davri munosabati bilan o'qituvchilar o'rtasida yangi iqtisodiy pozitsiyani shakllantirish zarurligini ta'kidlaydi[5].

Texnikum o'quvchilarini o'qitishda iqtisodiy kompetensiyasini takomillashtirish bir qator shartlarga bog'liq:

- iqtisodiy ta'lim-tarbiya uzviyligi texnikum o'quvchilari ta'lim oluvchilarga beriladigan bilimlarni yagona tizimda bir-biriga bog'laydi, shunda har bir o'quvchida ijobiy sifat o'zgarishlari vujudga kelishi;
- texnikum o'quvchilari uchun tanlab olinadigan ilk iqtisodiy atamalar, tushunchalar asosida shakllantiriladigan bilim olish mazmuni o'quvchiga eng yaqin bo'lgan faoliyat bilan bog'liq bo'lishi;
- texnikum o'quvchilarida ilk iqtisodiy bilimlar asosida bilim olishini shakllantirishga zamin yaratuvchi, ularda ijobiy fazilatlarini tarbiyalashga turtki bo'luvchi, atama va tushunchalar, ularning iqtisodiy mohiyatini tushunishga yordam beruvchi savodxonlik mazmuni nazarda tutgan holda belgilanishi zarur;
- iqtisodiy ta'lim-tarbiya jarayonining uzviy tashkil etilishi va uzluksiz tizimning o'qituvchi pedagoglarning hamkorlik maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, o'quvchilarini o'qitishda iqtisodiy kompetensiyasini takomillashtirish mazmuni ta'lim tizimining turli bosqichlarida iqtisodiy bilimni rivojlantirish mexanizmlari



o'rganildi. Uning mazmunini rivojlantirish tadqiqot jarayonida texnikum o'quvchilarida iqtisodiy bilimni shakllantirishga zamin yaratuvchi, ularda ijobiy fazilatlarini tarbiyalashga turtki bo'luvchi iqtisodiy tushunchalar aniqlanib, ular asosida o'quvchilarda shakllantirish mumkin bo'lgan iqtisodiy bilim mazmuni belgilandi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktabrdagi PF-6079-son «Raqamli O'zbekiston — 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmoni.
2. Дорохина, К. С. (2016). Экономическая компетентность будущих бакалавров сервиса. In *Сборники конференций НИЦ Социосфера* (No. 6, pp. 45-47). Vedecko vydavatelske centrum Sociosfera-CZ sro.
3. Кондратенко, Т. В. (2017). ЭКОНОМИЧЕСКАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ В СФОРМИРОВАННОСТИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ ТЕХНОЛОГИЙ. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (5-1), 40-43.
4. Кондрух, А. А., Кузьмин, А. М., & Найн, А. А. (2011). Формирование социально-экономической компетентности студентов в процессе профессиональной подготовки. *Сибирский педагогический журнал*, (12), 183-190.
5. Кузнецова, Н. (2015). Экономическая компетентность педагога как фактор его профессионального саморазвития. *Поволжский педагогический поиск*, (1), 40-42.
6. Tolipov B.X. Shaxs iqtisodiy madaniyatida moddiy va ma'naviy omillar uyg'unligi: Falsafa.fan.nom. diss.-T.: 2009. -B.152.
7. Muxitdinovna, X. D. (2023). Texnikum o'quvchilarini o'qitishda iqtisodiy kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari va omillari. *PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI*, 2(2), 98-100.
8. Maxmudovna, G. M., Olimovich, T. E., & Uralovich, B. D. (2021). Types and uses of mathematical expressions. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 746-749.
9. Uralovich, B. D., Normamatovich, R. B., & Kholmatovich, K. J. (2021). Development Of Mathematics In Different Periods. *European Journal of Research Development and Sustainability*, 2(3), 53-54.
10. Uralovich, B. D. (2022). CHIZIQLI ALGEBRAIK TENGLAMALAR SISTEMALARIGA OID MASALALAR. *Science and innovation*, 1(A2), 163-171.
11. Bozarov, D. U. (2022). IKKI O'ZGARUVCHILI FUNKSIYANING EKSTREMUMIDAN FOYDALANIB, TEKISLIKDAGI IKKITA FIGURA ORASIDAGI MASOFANI TOPIH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(11), 292-301.
12. Бозаров, Д. У. (2022). Determinantlar mavzusini mustaqil oqishga doir misollar. *Журнал Физико-математические науки*, 3(1).
13. Allamova, M., & Bozarov, D. (2023). TRIGONOMETRIK TENGSIZLIKLAR YECHIMLARINING INNOVATSION QO'LLANILISHI. *Eurasian Journal of Mathematical Theory and Computer Sciences*, 3(1), 75-78.
14. Muxitdinovna, X. D. (2023). Texnikum o'quvchilarini o'qitishda iqtisodiy kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari va omillari. *PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI*, 2(2), 98-100.